

Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti haqida "Obyektiv nigohida" ko'rsatuvidagi chiqishga MUNOSABAT

"O'zbekiston" telekanali "Obyektiv nigohida" ko'rsatuving 2020-yil 1-dekabr kuni sonida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi ilmiy-tadqiqot institutida mavjud ayrim muammolar haqida so'z yuritildi. Unda xususan, olimlar va ilmiy jamoaga zarur shart-sharoitlar yaratilmagani, laboratoriyaning jihozlarining eskirgani, binolarning yaroqsiz holga kelgani kabi masalalar ko'rsatildi va muassasaning ayrim xodimlari bu haqda fikr bildirishdi.

Ta'kidlash lozimki, ko'rsatuvda ishtirok etgan mutaxassis-olimlar bungacha turli OAVda shu haqdagi fikrlari bilan chiqish qilishgan. Ularning aksariyati yuzasidan Fanlar akademiyasi tomonidan munosabat qilingan va OAV da tushuntirish berilgan. (<http://academy.uz/uz/news/kechirasiz-bu-ilmiy-tadqiqot-institutimi-yoki-tashlandiq-bino-maqolasiga-munosabat>, <http://academy.uz/uz/news/yosh-olimlar-nimadan-norozi-maqolasida-keltirilgan-vajlar-asoslimi>).

Shuni qayd etish kerakki, mazkur ko'rsatuvda ko'tarilgan muammolar bir kunda paydo bo'limgan. Yillar davomida Institut sobiq va bugungi rahbariyati tomonidan e'tibor berilmay yoki sovuqqonlik bilan qarash natijasida yoki tizimli moliyaviy muammolar tufayli vujudga kelgan. Xususan, ko'rsatuvda chiqish qilgan olim-mutaxassis S. Boboyev mazkur Institutni 2016-2017-yillarda boshqargan.

Yuqorida ko'rsatuvda keltirilgan holatlarni o'rganish bo'yicha Fanlar akademiyasining Maxsus ishchi guruhi tashkil etildi. Hozirda maxsus ishchi guruh xulosasi Fanlar akademiyasi Prezidiumiga kiritildi. Institut jamoasi u bilan tanishmasdan turib, bu kabi tanqidiy chiqishlarni noo'rin, deb hisoblaymiz.

Ko'rsatuvda aytib o'tilgan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi quydagilarni ma'lum qiladi:

O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy izlanishlar olib boradigan yagona tashkilot emas, FA tizimidagi Genomika va bioinformatika markazi, O'simlik moddalari kimyosi instituti, Bioorganik kimyo instituti, Mikrobiologiya institutlarida ham qishloq xo'jaligi borasida ilmiy-tadqiqotlar olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi PQ-3365-sonli "Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutini 2021-yilda kapital ta'mirlashga 5 304 500 000 ming so'm (besh milliard uch yuz turt million besh yuz ming), ilmiy va laboratoriya uskunalari bilan jihozlash uchun 438 600 (to'rt yuz o'ttiz sakkiz ming olti yuz) AQSh dollari va zarur butlovchi buyumlar, sarflash materiallari va reaktivlar bilan ta'minlash uchun 8 320 (sakkiz ming uch yuz yigirma) AQSh dollari ajratilishi ko'zda tutilgan. Hozirda Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan asbob-uskunalarni harid qilish uchun ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2019-yil 21-sentyabr kungi Toshkent viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va viloyat faollari bilan o'tkazilgan majlis bayoniga binoan bir nechta tashkilotlar, shu jumladan, O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining 30,2 hektar yer maydonlari Toshkent viloyati g'alla klaster tizimini rivojlantirish maqsadida tuman hokimligi zaxirasiga o'tkazilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2018-yilning 6-aprel kuni Fanlar akademiyasining O'simlik moddalari kimyosi institutida ilm-fan namoyondalari bilan o'tkazilgan uchrashuvida "Respublika ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalarining samarali ilmiy faoliyat yuritayotgan, uy-joyga muhtoj bo'lgan olimlari hamda istiqbolli yosh izlanuvchilarini imtiyozli ipoteka kreditlari asosida arzon uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar" rejasini ishlab chiqish bo'yicha

topshiriq berilgan edi. Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida chora-tadbirlar rejası ishlab chiqildi va Respublika Bosh vaziri A. Aripov tomonidan 2018-yil 14-iyunda tasdiqlandi. Chora-tadbirlar rejası - "Fanlar akademiyasining Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti balansidagi (Toshkent viloyati, Qibray tumani) hududda imtiyozli ipoteka kreditlari asosida Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari va Boshqaruv apparati xodimlari uchun 1 ta ko'p qavatli turar-joy binosi qurilishi uchun hamda har bir Institut uchun bittadan, Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti uchun ikkita va Boshqaruv apparati xodimlari uchun beshta, jami 30 ta namunali loyiha asosidagi uylarni qurish uchun Qibray tumani hokimining 2019-yil 5-fevraldagagi qaroriga muvofiq yer maydoni ajratilib, barcha tegishli tashkilotlar bilan kelishilgan holda qurilish ishlarini boshlashga ruxsat berilgan. Ushbu uylar tashlandiq holga kelgan bog' hamda avariya holatidagi eski binolar o'rniqa qurilmoqda.

Shuningdek, Zangiota ilmiy-tajriba bazasida bo'lган qishloq xo'jaligi ekinlariga dori sepishda ishlataladigan uskuna (OVX) hamda seyalka Institut direktorining FA rahbariyatiga kiritgan bildirgisi asosida hisobdan chiqarishga ruxsat berilgan.

Xitoy Fanlar akademiyasi Shinjon Ekologiya va geografiya instituti bilan qo'shma laboratoriya tashkil etish taklifi bildirilgan, biroq tashkiliy jarayonlar Institut tomonidan yakuniga yetkazilmagan.

Mazkur ko'rsatuvda "Yuqori yuz" MFY tomonidan Institut binolarida uy-joyga muhtoj fuqarolarga g'amxo'rlik sifatida yashashga "ruxsat bergenligi" va ularning buzilishi mumkin bo'lган binolardan ko'chirilishi albatta tahsinga loyiq. Biroq bo'lib o'tgan voqealar atroflicha o'rganilmagan.

Ko'rsatuv ijodkorlari tomonidan real holat, voqealar, tegishli hujjatlar o'rganilmagan. Ko'rsatuvda keltirilgan ko'plab holatlar yuzasidan Fanlar akademiyasi tegishli ma'lumotlarni ommaga bir necha marta taqdim qilgan. Murojaat asosida borgan jurnalist mutassaddi tashkilotlar bilan ham bog'lanib, masalani chuqurroq o'rganishi, mahalla raisi bilan bir qatorda albatta Institut rahbariyati bilan ham uchrashishi, suhbatlashishi kerak edi. Bu ko'rsatuvga bir tomonlama yondoshilganligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida jurnalistning majburiyatlari keltirilgan bo'lib, unda o'z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirish chog'ida jurnalist o'zi tayyorlayotgan materiallarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirishi va xolis axborot taqdim etishi, jurnalistlarning kasbga oid odob-axloq qoidalariga rioya etishi shart ekani belgilab qo'yilgan.